

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДА FOYDALANISH.

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**  
**Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti**  
**Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**  
**(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti**  
**Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi**

**Аннотация:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish haqida yoritilgan bo'lib, Raqamli ta'limiy vositalarning (RTV) (interaktiv doskalar, elektron taqdimotlar, vizual resurslar) ta'lim jarayoniga olib kirish va tadbiiq etish, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borish jarayonida ham interaktiv vositalardan, (misol uchun qaysidir ertak yoki hayvonlar harakatlarini yana boshqa narsalarda ham qo'llasa bo'ladi albatta) foydalanib olib borilsa bolalarda ham tasavvur uyg'onadi ham ongida shu tasvir shakllanadi. Faoliyat olib borishda samarali natijaga erishilishi haqida yoritilgan

**Калит so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, raqamli texnologiya, axborot texnologiya, innovatsiya, interaktiv vositalar, tarbiyachi kompetensiyasi, ta'lim.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается применение цифровых технологий в дошкольных образовательных организациях, внедрение и реализация цифровых образовательных средств (ЦОС) (интерактивных досок, электронных презентаций, наглядных пособий) в образовательный процесс, а также применение интерактивных средств в дошкольных образовательных организациях (например, в качестве примеров можно привести движения сказок или животных), которые будят воображение детей и формируют этот образ в их сознании. Обсуждается достижение эффективных результатов при осуществлении деятельности.

**Ключевые слова:** Организация дошкольного образования, цифровые технологии, информационные технологии, инновации, интерактивные инструменты, компетентность воспитателя, образование.

**Abstract:** This article discusses the use of digital technologies in preschool educational organizations, the introduction and implementation of Digital Educational Tools (DET) (interactive whiteboards, electronic presentations, visual resources) in the educational process, and the use of interactive tools in preschool educational organizations (for example, some fairy tale or animal movements can be used in other things, of course), which awakens the imagination of children and forms this image in their minds. It discusses the achievement of effective results in carrying out activities.

**Keywords:** Preschool education organization, digital technology, information technology, innovation, interactive tools, educator competence, education.

Hozirgi zamonaviy jamiyatning raqamli texnologiyaga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Dunyoning raqamlashuvi, axborotlashuvi Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yangi talablar qo'yib bormoqdan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2024-yil 1-fevraldagi PF-25-sonli farmoni „Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida” va „ 2025-yil 16-sentabr PQ-286-sonli „Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida har bir soha ya'ni har bir tashkilot raqamli texnologiyani dasturiga qo'shishi kerak ekanligini hozirgi vaqtda raqamli texnologiya jadal rivojlanib borayotgan jarayonda har bir inson fodalana olish ko'nikmasini rivojlantirishi kerak. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020) ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga ham kirib keldi. Raqamli resurslar bolalarning ijtimoiy-emotsional va mantiqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi, biroq noto'g'ri qo'llanilganda salbiy oqibatlarga ya'ni (ortiqcha ekran vaqti, passivlik) ham yuzaga

keladi. Bu mavzu bo'yicha amalga oshirilgan yirik tahlillar va amaliy tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning samarasi va xavf-xatarlarini aniqlashga yordam beradi. Raqamli texnologiyani kirib kelishi bu har bir Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir kadrlar ishini ancha yengillashtirdi. Sababi raqamli texnologiya, axborot texnologiyasi, multimedia vositalari bilan ta'lim va tarbiya berish jarayoni osonlashdi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ldi. Bundan tashqari UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar ta'limni kengaytirishi va sifatni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi, lekin bunda kontent sifati, muallimlar malakasi va teng huquqli kirish (digital divide) muammolari hal etilishi kerak. To'g'ri texnologiya innovatsiyalar rivojlanib bormoqda, lekin kadrlar malakasi bu innovatsiya raqamli texnologiya va axborot texnologiyalardan foydalana olish kompetensiyasi yetarli emas aniqroq aytganda yo'q. Biz mana shu muammoni hal qilish maqsadida kadrlarga yetarli darajada axborot texnologiyalari va raqamli texnologiya yoki jadal rivojlanib borayotgan innovatsiyalarni turli xil trenning va seminarlar tashkillashtirib o'rgatishimiz kerak. Buni ham albatta yetarli darajada raqamli va axborot texnologiyasidan malakasi bor kadr tomonidan olib boriladi. Milliy adabiyotlarda raqamli pedagogikaning nazariy asoslarini tahlil qilib, MT tizimida tarbiyachilarni texnologiyaga tayyorlash dolzarb muammo ekanligini qayd etadi. Biroq, mavjud milliy tadqiqotlarda, raqamli texnologiyadan foydalanishning kognitiv rivojlanishga ta'sirining miqdoriy tahliliga oid bo'shliq mavjud. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Milliy darajadagi tadqiqotlar shu jumladan O'zbekiston sharoiti bo'yicha maqolalar pedagoglarning raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi tajribasi va usullari haqida ma'lumot beradi ya'ni bu ishlar o'qituvchilarning metodik va texnik tayyorgarligi yetarli bo'lmasa, texnologiyalarning samarasi past bo'lishini ko'rsatadi. To'g'ri texnologiyalarni ish samaradorligi past bo'lib ketish ehtimol mavjud, lekin biz pasayib ketar ekan deb jim o'tirmasligimiz kerak ta'lim jarayoniga pedagog kadrlar orasida tadbiiq qilishimiz zarur va shart. Lekin bu sharoitda ham tarbiyachi pedagoglar harakat qilib o'zlari o'rganishlari ham mumkin. Misol uchun ta'lim tizimigda interaktiv doskalar, taqdimot dasturlari, audio

va video resurslar – pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Lekin hozirgi kunda ba'zi qo'shtirnoq ishidagi tarbiyachi pedagoglar bilsalar ham ta'lim tizimida foydalanishmaydi. Buning oldini olish uchun ancha say harakat ketadi. Ammo biz kelajak avlodga qanday ta'lim tarbiya beramiz eskilikda qolib ketgan vositalarni qayta-qayta takroran qilavermaymizku. Chuning uchun hozirdan harakatni boshlash kerak.

**Vigotskiyning** ijtimoiy-madaniy nazariyasi asosida mustahkamlangan. Raqamli texnologiyalar (Masalan, interaktiv doskalar) bolalar va tarbiyachi o'rtasidagi o'zaro aloqani kengaytiruvchi muhit (environment) yaratadi. Albatta Vigotskiy shu davrda ham raqamli texnologiya qay darajada samarali ekanligini aytib o'tgan ekan.

**Papadakis va Kalogiannakis** AR (Augmented Reality – bu kengaytirilgan reallik ya'ni tasvirlarning kattalashtirilgan variant misolda) ilovalaridan foydalanishni o'rgangan bo'lsa, xalqaro adabiyotlarda interaktiv doskalarining (IWB) mavhum tushunchalarni (masalan, ranglar, shakllar, sanash) vizuallashtirish orqali tushuntirishdagi ahamiyati qayd etilgan. Bunda Papadakis va Kalogiannakis interaktiv vositalar yordamida tasvirlarni kengaytirish masalalarini o'rgangan, haqiqatdan ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borish jarayonida ham interaktiv vositalardan, (misol uchun qaysidir ertak yoki hayvonlar harakatlarini yana boshqa narsalarda ham qo'llasa bo'ladi albatta) foydalanib olib borilsa bolalarda ham tasavvur uyg'onadi ham ongida shu tasvir shakllanadi. Faoliyat olib borishda samarali natijaga erishiladi.

**Shifflet va Weck** tadqiqotlari texnologiyaning muvaffaqiyati nafaqat vositaning o'ziga, balki tarbiyachining uni ta'limiy maqsadlarda, **o'yin doirasidan tashqarida** qo'llash qobiliyatiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shifflet va Weck ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyadan, axborot texnologiyalaridan Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat jarayonidan tashqari boshqa vaziyatlarda ham qo'llasa bo'lishi haqida aytib o'tgan. To'g'ri endi bu axborot texnologiyalari yoki raqamli texnologiyalarda ta'limiy faoliyatdan tashqari foydalanish, bu tarbiyachi pedagogning mahoratiga bog'liq.

O'tkazilgan tadqiqotlar Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiya ta'lim sifatini oshirishi, har bir tarbiyachi pedagog raqamli texnologiyadan, axborot texnologiyalaridan va innovatsiyalardan foydalana olish qobiliyatini oshirish kerakligi bu ta'lim sifatini yanada takomillashishiga olib keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. „O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“ farmon. 2020-yil.
2. UNESCO. „Technology and learning for early childhood and primary education“ (syntheses and guidance).
3. UNESCO. „Digital learning and transformation of education“ (Need to know).
4. Q.Avazov, „Maktabgacha ta'limda raqamli pedagogika asoslari“. Monografiya. Toshkent: Innovatsiya. 2022-yil.
5. A.M.Sholpanova, „Maktabgacha ta'limda pedagoglar akt dan foydalanish usullari“. „Journal of new century innovations“ 2024 yil.
6. **Vygotsky, L. S.** „Mind in society: The development of higher psychological processes“. Harvard University Press. (Raqamli vositalarni "vositachi" (mediator) sifatida ko'rish uchun nazariy asos.) 1978-yil.
7. **Papadakis, S., & Kalogiannakis, M. (2020).** Exploring the educational potential of augmented reality applications in pre-school education. *Computers & Education*, 148, 103778. doi:10.1016/j.compedu.2020.103778 (O'yin emas, balki jiddiy ta'limiy vosita sifatidagi AR texnologiyasining MTTdagi samaradorligi.)
8. **Shifflet, R., & Weck, P. (2019).** The teacher's role in technology integration in early childhood classrooms. *Journal of Research in Childhood Education*, 33(3), 420–435. (Tarbiyachining raqamli vositalarni samarali integratsiyalashdagi hal qiluvchi ahamiyatiga bag'ishlangan.)2019-yil.